

4-1-2020

DIVIDEND POLICY ANALYSIS IN DEVELOPED COUNTRIES AND DIVIDEND ARISTOCRATS

S. Elmirzayev

Tashkent Financial Institute

S. Omonov

Tashkent Financial Institute

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance>

Recommended Citation

Elmirzayev, S. and Omonov, S. (2020) "DIVIDEND POLICY ANALYSIS IN DEVELOPED COUNTRIES AND DIVIDEND ARISTOCRATS," *International Finance and Accounting*: Vol. 2020 : Iss. 2 , Article 22.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2020/iss2/22>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in International Finance and Accounting by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

Elmirzayev S.E. - TMI, i.f.d., prof.
Omonov S.O' - TMI, magistrant

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA DIVIDEND SIYOSATI TAHLILI VA DIVIDEND ARISTOKRATLARI

Maqolada rivojlangan mamlakatlarda dividendlar to'lovlarining holati va tahlili, S&P 500 indeksining Dividend Aristokratlari deb ataluvchi kompaniyalarining dividend bo'yicha daromadlilik, bozor kapitalizatsiyasi kabi ko'rsatkichlari tahlili keltirilgan. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlardagi General Motors, BMW, Toyota kabi kompaniyalarning dividend siyosati atroflicha o'rganilgan va bu orqali tegishli xulosa va takliflar berilgan.

Tayanch so'zlar: dividend, dividend siyosati, S&P 500 indeksi, Dividend aristokratlari, agentlik nizolari, korporativ boshqaruv, dividend bo'yicha daromadlilik.

АНАЛИЗ ДИВИДЕНДНОЙ ПОЛИТИКИ РАЗВИТЫХ СТРАН И ДИВИДЕНДНЫЕ АРИСТОКРАТЫ

В статье приводится состояние и анализ дивидендных выплат в развитых странах, анализ дивидендной доходности и рыночной капитализации компаний под названием дивидендные аристократы в индексе S&P 500. Дивидендная политика таких компаний, как General Motors, BMW и Toyota в развитых странах, также были подробно изучены и сделаны соответствующие выводы и предложения.

Ключевые слова: дивиденд, дивидендная политика, индекс S&P 500, дивидендные аристократы, агентские проблемы, корпоративное управление, дивидендная доходность.

DIVIDEND POLICY ANALYSIS IN DEVELOPED COUNTRIES AND DIVIDEND ARISTOCRATS

The article provides the state and the analysis of dividend payments in developed countries, the analysis of dividend yield and market capitalization of the companies called Dividend Aristocrats in S&P 500 index. The dividend policies of companies such as General Motors, BMW, and Toyota in developed countries have also been studied in detail, and relevant conclusions and proposals have been made.

Keywords: dividend, dividend policy, S&P 500 index, Dividend Aristocrats, agency problems, corporate governance, dividend yield.

Kirish

Mamlakatimizda moliya bozorini rivojlantirish aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini yaxshilash va ularda samarali korporativ boshqaruvni yo'lga qo'yishni talab etadi. Aksiyadorlik jamiyatlarida samarali korporativ boshqaruvni tashkil etishda oqilona dividend siyosatining alohida o'rni borligini ta'kidlashimiz lozim.

Mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlarining aksariyatida davlat ulushi yuqoriligi e'tiborli jihat hisoblanadi. Bu jihat ushbu aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda va iqtisodiyotda ham ushbu ta'sir sezilmoqda. Xususan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "Byudjetga tushumlarni oshirishda yana bir muhim yo'nalish – davlat aktivlari. O'tgan yili davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan byudjetga jami 1,6 trillion so'm dividend to'langan, xolos" [1], deya ta'kidladilar. Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat ulushini kamaytirish va ularda samarali korporativ boshqaruvni tashkil etish orqali aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini yaxshilash zarur.

Dividend siyosatida aks etadigan olingan foydani taqsimlash bo'yicha korxonalar va mulkdorlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar murakkab va ko'p qirrali hisoblanadi. Investor tomonidan korxonalar kapitaliga pay, ulush, aksiyalarga tikilgan pul mablag'lari haqiqatda uning korxonaga egalik qilish huquqini va o'z navbatida, olingan foydani taqsimlashda ishtirok etish huquqini beradi. Bu esa dividend siyosatining ahamiyatini oshiradi. Shuning uchun dividendlarning iqtisodiy mohiyati va paydo bo'lish tabiatidan boshlab uning tarkibiy qismini ko'rib chiqish zarur.

Oqilona dividend siyosatida dividend va reinvestitsiya o'rtasidagi me'yoriy nisbatni aniqlash, minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish va bular orqali investitsion jozibadorlikni oshirish, boshqa kompaniyalar tomonidan kompaniyaning qo'shib olinishining oldini olish, agentlik nizolarining yuzaga kelish ehtimolligini pasaytirish, aksiyalarning bozordagi narxining o'sishiga erishish, biznes faoliyatini kengaytirish imkoniyatlari yuzaga kelishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu sababli rivojlangan mamlakatlarda dividend siyosatining amaldagi holatini o'rganish va milliy amaliyotimizga moslashtirish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Dividend siyosati nafaqat mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlarida, balki xalqaro darajada ham korporativ moliyani rivojlantirish va aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirishda dolzarblik kasb etadi. E.F.Brixem va J.F.Hyustonlarning fikricha, kompaniyalar foyda olganda ushbu foyda joriy aktivlarga reinvestitsiya qilinishi, qarzni to'lash uchun ishlatilishi yoki aksiyadorlarga tarqatilishi mumkin. Agar foydani aksiyadorlarga taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilinsa, 3 ta muhim savolga javob topish zarur: foydaning qanchasi taqsimlanishi kerak, taqsimlash dividendlar ko'rinishida bo'ladimi yoki pul aksiyadorlardagi aksiyalarni qayta sotib olish orqali berilishi kerakmi va taqsimlash qanchalik barqaror bo'lishi kerak [2].

Olimlar J.Atanassov va A.Mandellning ta'kidlashlaricha, dividendlarni ko'paytirish yoki aktivlarga investitsiya qilish holatlarida qisqa muddatda foydaga erishishdan manfaatdor bo'lgan yirik investorlar boshqa kichik investorlarning manfaatlarini hisobga olmasdan o'zlarining boyligini ko'paytiradigan variantni tanlashlari mumkin [3].

K.Garrettesa dividendlar va aksiyalar narxining o'sishi aksiyadorlarning boyligini oshirishning ikki usuli ekanligini aytgan. Unga ko'ra, dividendlar va aksiyalar bahosining o'sishi o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud: agar foyda to'liqligicha dividend sifatida to'lanadigan bo'lsa, kompaniya faoliyatini

rivojlantirish uchun reinvestitsiya qilish imkoni qolmaydi. Shuning uchun barcha kompaniyalar investorlarga foydaning qancha qismini dividend sifatida to'lashlari va qancha qismi reinvestitsiya uchun saqlanishi kerakligini hal qilishlari lozim [4].

M.Harake ma'lumot assimetriyasining pasayishi dividend siyosati bo'yicha agentlik nizolarni yengillashtirishini va shu bilan dividendlarni to'lash uchun ko'p xarajat talab etadigan investitsiyalarni jalb qilish zaruratini kamaytirishini ko'rsatib o'tgan [5].

K.Drayver, A.Grosmen va P.Skaramozzinolarfikricha, agentlik nazariyasining ahamiyati investorlarni himoya qilishga va shaffoflikning mavjudligiga bog'liq. Bundan tashqari, agentlik muammolariga qarshi choralar ko'rish, xususan, aksiyadorlar tomonidan korporativ boshqaruv kodeksi qabul qilinishi zarur [6].

Shuningdek, tadqiqotchi N.Sherqo'ziyevaning izlanishlariga ko'ra, o'z dividend siyosati maqsadlarini va rivojlanish yo'nalishlarini aniq belgilab olgan aksiyadorlik jamiyatlari potensial investorlar oldida eng yuqori jozibadorlikka ega bo'ladi. Kompaniyalar tomonidan dividend siyosati borasida aniq yo'nalishga ega bo'lish ularning qimmatli qog'ozlar bozoridagi obro'sini va nufuzini oshirish bilan birga mamlakatimizda rivojlanish imkoniyatlarini ham oshiradi [7].

Tahlil va natijalar

Dividend siyosatining asosiy maqsadi - aksiyadorlarning daromadlilikini oshirish. Agar kompaniyada daromadlilik darajasi yuqori bo'ladigan foydali investitsiya loyihalari mavjud bo'lsa, kompaniya investitsiyalar uchun foydani ushlab turishi kerak bo'ladi, aks holda, ushbu foyda dividend sifatida to'lanishi kerak. Birinchi vaziyatda, kompaniya va kompaniya aksiyadorlari aniq vaqt davri va pul summasini o'z ichiga olgan strategik investitsiya loyihalariga ega bo'lsa, yuqori daromad olishadi. Agar kompaniyada bunday reja bo'lmasa, pulni dividend sifatida berish yaxshiroqdir. Bu kompaniyaga aksiyadorlarning ishonchini oshirishga va boshqa potensial investorlarni jalb qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, bu bozorda aksiyalar narxining oshishiga olib keladi.

Dividendlarni to'lash va dividendlarni to'lamaslik o'rtasida kompaniyalar o'rtasida tanlov yo'q. Aksariyat kompaniyalar yuqori dividend to'lash orqali barqaror dividend siyosatiga amal qilishadi va bu orqali aksiyalarning bozor qiymatini oshirishi mumkin, deb hisoblashadi. Bundan tashqari, bozorda bunday kompaniyalarning obro'si yaxshilanmoqda va investorlar ham bunday kompaniyalarni ma'qul ko'rmoqda. Shunday qilib, ushbu siyosatni olib boradigan kompaniyalar zarur bo'lganda kompaniya faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish uchun qo'shimcha mablag' to'plash uchun bozorga muvaffaqiyatli murojaat qilishlari mumkin [8].

Agar rivojlangan mamlakatlarga e'tibor berilsa, dividendlar bo'yicha daromadlilik mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlari tufayli bir-biridan farq qiladi. Quyidagi jadvalda 2015-yildan 2019-yilgacha (6 oylik interval bo'yicha) mamlakatlar bo'yicha dividendlar bo'yicha daromadlilik ko'rsatkichlarini keltirib o'tamiz (1-jadval).

1-jadval**Mamlakatlar kesimida dividend bo'yicha daromadlilik ko'rsatkichlari [9]**

№	Mamlakat	30.06.2015	31.12.2015	30.06.2016	31.12.2016	30.06.2017	31.12.2017	30.06.2018	31.12.2018	30.06.2019
	Avstraliya	4.62%	4.73%	4.63%	4.25%	4.19%	4.13%	4.03%	4.50%	3.89%
	AQSh	1.99%	2.11%	2.13%	2.03%	1.94%	1.83%	1.84%	1.98%	1.87%
	Buyuk Britaniya	3.46%	3.70%	3.66%	3.47%	3.61%	3.59%	3.64%	4.46%	4.13%
	Yaponiya	1.50%	1.58%	1.97%	1.71%	1.68%	1.44%	1.61%	1.90%	2.10%
	Xitoy	1.26%	1.73%	2.03%	1.83%	1.68%	1.77%	2.57%	2.70%	2.19%
	Kanada	2.97%	3.32%	2.99%	2.76%	2.85%	2.71%	2.92%	3.45%	3.10%
	Germaniya	2.58%	2.60%	2.98%	2.47%	2.57%	2.71%	2.56%	2.71%	2.63%
	Ispaniya	4.12%	3.87%	4.89%	4.12%	3.67%	3.82%	3.71%	4.61%	4.62%
	Hindiston	1.44%	1.46%	1.25%	1.35%	1.12%	1.08%	1.22%	1.24%	1.24%
	Fransiya	3.35%	3.42%	4.05%	3.41%	3.24%	2.34%	3.31%	3.54%	3.30%

Ushbu jadvalga ko'ra, oxirgi davrda Ispaniya 4,62% bilan eng yuqori dividend daromadiga ega bo'lib, Buyuk Britaniya va Avstraliya mos ravishda 4,13% va 3,89% bilan keying o'rinlarni egallagan. AQShda bu ko'rsatkich taxminan 2% ni tashkil qildi, 2015 yildan 2019 yilgacha Yaponiyada 1,5% dan 2,1% gacha o'zgargan. Germaniya dividendlari bo'yicha daromadlar bu davrda 2,47% va 2,71% orasida o'zgargan. Xulosa qilib aytganda, jadvalda keltirilgan ma'lumotlar rivojlangan davlatlarning boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarga qaraganda o'zgarishlar nisbatan kam ekanligini ko'rsatmoqdalar. Bu shuni anglatadiki, rivojlangan davlatlardagi kompaniyalar yaxshi iqtisodiy va moliyaviy muhitni yaratganligi sababli samarali faoliyat olib borishmoqda va bu yuqori daromad olish hamda doimiy va qoniqarli dividendlarni to'lashga olib keladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa kutilmagan vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin, bu mablag'ning ko'payishiga yoki yo'qotilishiga olib keladi. Bunday holda, aksiyadorlar uchun to'lovlar sezilarli darajada oshishi yoki kamayishi mumkin.

Standard and Poor's kompaniyasi 2005 yilda S&P 500 Dividend Aristokratlari indeksi deb nomlangan indeksni yaratdi. Bu ketma-ket 25 yil va undan ko'proq vaqt davomida dividend to'lovlarini oshirgan S&P 500 kompaniyalarini o'z ichiga oladi.

S&P 500 Dividend Aristokratlari ro'yxatini shakllantirishda quyidagi me'zonlardan foydalanadi:

- S&P 500 a'zosi bo'lishi kerak;
- kamida 25 yil davomida har yili dividendlarni oshirib borishi kerak;
- bozor kapitallashuvi kamida 3 milliard AQSh dollari bo'lishi zarur;
- likvidligi kamida 5 million AQSh dollari (savdoning o'rtacha kunlik qiymati);

- kamida 40 tarkibiy qismlı diversifikatsiyaga ega bo‘lish va ularning hech biri 30 foizdan yuqori bo‘lishi shart.

Quyida S&P 500 indeksi tomonidan ushbu shartlar asosida tuzilgan Dividend Aristokratlari ro‘yxati berilgan (2-jadval).

2-jadval

Dividend aristokratlari (S&P 500) ro‘yxati [10]

№	Mamlakat	Kompaniya nomi	1 dona aksiya bahosi (\$)	Dividend bo‘yicha daromadlilik	Bozor kapitalizatsiyasi (mln. \$)	Dividend to‘lovlari o‘sib borish muddati (yil)
1.	US	AT&T, Inc.	39,06	5,22%	285333,30	36
2.	US	AbbVie, Inc.	88,7	4,83%	131171,33	25
3.	US	Exxon Mobil Corp.	70,33	4,81%	297573,97	38
4.	US	People’s United Financial, Inc.	16,62	4,24%	7381,34	26
5.	US	Franklin Resources, Inc.	25,09	4,15%	12524,02	29
6.	US	Cardinal Health, Inc.	49,36	3,88%	14437,21	25
7.	US	Chevron Corp.	121,01	3,88%	228814,18	32
8.	US	Consolidated Edison, Inc.	88,63	3,31%	29463,27	46
9.	US	Federal Realty Investment Trust	126,14	3,26%	9605,51	52
10.	US	3M Co.	178,45	3,18%	102617,85	62
11.	US	Leggett & Platt, Inc.	49,78	3,13%	6551,20	49
12.	US	Kimberly-Clark Corp.	135,79	3,01%	46549,63	48
13.	US	Archer-Daniels-Midland Co.	46,02	3,01%	25618,69	45
14.	US	Walgreens Boots Alliance, Inc.	59,08	3,01%	52462,27	45
15.	US	Nucor Corp.	54,39	2,94%	16491,86	28
16.	US	The Coca-Cola Co.	54,69	2,91%	234318,76	58
17.	US	Genuine Parts Co.	104,31	2,88%	15155,51	64
18.	US	PepsiCo, Inc.	135,63	2,78%	189126,54	48
19.	US	The Clorox Co.	152,91	2,64%	19190,66	43
20.	US	Emerson Electric Co.	76,42	2,56%	46685,97	63
21.	US	Johnson & Johnson	144,28	2,56%	379726,20	58
22.	US	Colgate-Palmolive Co.	68,02	2,50%	58296,13	57
23.	US	Caterpillar, Inc.	148,44	2,43%	82036,55	26
24.	US	T. Rowe Price Group, Inc.	124,75	2,39%	29151,21	34
25.	US	Procter & Gamble Co.	122,58	2,39%	305691,23	64
26.	US	McDonald's Corp.	200,08	2,32%	150678,85	44
27.	US	Illinois Tool Works, Inc.	179,11	2,27%	57567,03	45
28.	US	General Dynamics Corp.	180,18	2,21%	52127,16	28
29.	US	Target Corp.	124,76	2,08%	63220,51	53
30.	US	Cincinnati Financial Corp.	106,5	2,08%	17399,33	60
31.	US	Air Products & Chemicals, Inc.	226	2,03%	49829,84	37
32.	US	Aflac, Inc.	52,98	2,02%	38888,27	37
33.	US	VF Corp.	99,6	1,97%	39777,65	47
34.	US	United Technologies Corp.	153,35	1,92%	132356,08	26
35.	CH	Chubb Ltd.	155,78	1,90%	70599,81	25
36.	US	Hormel Foods Corp.	44,25	1,90%	23662,11	54
37.	US	Automatic Data Processing, Inc.	169,96	1,86%	73541,35	45
38.	US	A. O. Smith Corp.	47,35	1,86%	6489,74	27
39.	US	Sysco Corp.	84,35	1,85%	43037,65	50
40.	IRL	Medtronic Plc	113,88	1,83%	152642,47	43
41.	US	Walmart, Inc.	117,89	1,79%	334475,15	47
42.	US	Lowe’s Cos., Inc.	119,6	1,72%	91670,41	58
43.	GER	Linde Plc	205,26	1,68%	110260,75	27
44.	US	Dover Corp.	115,78	1,67%	16818,90	64
45.	US	W.W. Grainger, Inc.	340,66	1,64%	18349,99	49
46.	US	Stanley Black & Decker, Inc.	167,12	1,60%	25404,25	53
47.	UK	Pentair Plc	45,98	1,56%	7728,92	43
48.	US	PPG Industries, Inc.	129,69	1,50%	30666,89	33
49.	US	Abbott Laboratories	85,89	1,49%	151801,99	25
50.	US	McCormick & Co., Inc.	170,2	1,31%	22621,62	34
51.	US	Becton, Dickinson & Co.	269,59	1,14%	72913,31	48
52.	US	Brown-Forman Corp.	67,34	0,99%	32178,15	35

53.	US	Ecolab, Inc.	189,32	0,97%	54570,35	33
54.	US	S&P Global, Inc.	276,91	0,80%	67676,80	45
55.	US	Cintas Corp.	269,57	0,76%	27955,22	37
56.	US	The Sherwin-Williams Co.	564,45	0,75%	52103,82	42
57.	US	Roper Technologies, Inc.	363,03	0,51%	37776,18	27

S&P 500 ning 2020-yil 7-yanvardagi ma'lumotiga asosan ushbu jadvaldagi kompaniyalar dividend bo'yicha daromadlilik ko'rsatkichi natijalariga ko'ra ketma-ketlikda berilgan. AT&TInc. Kompaniyasi so'nggi yilda Dividend Aristokratlari orasida dividend bo'yicha daromadliliigi 5,22% bilan eng yuqori ko'rsatkichni ko'rsatayotgan kompaniya hisoblanadi. Agar jadvalga e'tibor qaratsak, 4 kompaniyaning dividend bo'yicha daromadliliigi 4-5% oralig'ida bo'lib, ushbu ko'rsatkich bo'yicha yuqori natijalarni ko'rsatgan. 9 ta kompaniyaning ko'rsatkichlari esa 3-4% intervalda joylashgan. 19 ta kompaniya dividend bo'yicha daromadlilik 2-3% oralig'ida va aksariyat kompaniyalar (25 takompaniya) 2% dan past ko'rsatkichga ega.

Boshqa tomondan, ko'rsatkichlari 2% dan past bo'lgan kompaniyalar aksiyalarining narxi ro'yxatning yuqori qismidagi kompaniyalar narxlariga qaraganda qimmatroq. Bundan tashqari, ushbu 57 kompaniya tashkil etilgan joyiga ko'ra 5 ta mamlakatda joylashgan: Shveysariya (1), Irlandiya-(1), Germaniya-(1), Buyuk Britaniya-(1) va AQSh-(53). Bu shuni ko'rsatadiki, boshqa kompaniyalarga qaraganda ushbu ro'yxatdan, asosan, AQSh kompaniyalari o'rin egallagan.

Agar Dividend Aristokratlari sohalar bo'yicha tahlil qilinsa, kompaniyalar sonida sezilarli o'zgarishlar mavjudligini ko'rish mumkin. Quyidagi jadvalda Dividend Aristokratlari tegishli bo'lgan sohalar haqida ma'lumot berilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, Dividend Aristokratlarijami 10 sohagategishli. Sanoat sohasi boshqa sohalar orasida 13 ta kompaniya bilan ustunlik qilgan bo'lsa, ko'chmas mulk vakommunal xizmatlar sohalarini esa faqat bitta kompaniyani o'z ichiga olgan holda eng kichik ko'rsatkichlarga ega (3-jadval).

3-jadval

Dividend aristokratlarining sohalar bo'yicha tahlili [11]

№	Sohalar	Kompaniyalar	Soni
	Energetika	<ul style="list-style-type: none"> • Exxon Mobil (XOM) • Chevron (CVX) 	2
	Birlamchi iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish	<ul style="list-style-type: none"> • ArcherDanielsMidland (ADM) • Brown-Forman (BF.B) • HormelFoods (HRL) • Kimberly-Clark (KMB) • McCormick&Company (MKC) • Sysco (SYY) • Procter&Gamble (PG) • Colgate-Palmolive (CL) • Clorox (CLX) • Coca-Cola (KO) • Pepsico (PEP) 	11
	Ikkilamchi iste'mol mahsulotlarini	<ul style="list-style-type: none"> • GenuinePartsCompany (GPC) • Target (TGT) • WalgreensBootsAlliance (WBA) 	8

	ishlab chiqarish	<ul style="list-style-type: none"> • McDonald's (MCD) • Leggett&Platt (LEG) • Wal-Mart (WMT) • V.F. Corp (VFC) 	
	Sanoat	<ul style="list-style-type: none"> • 3M Company (MMM) • A.O. Smith (AOS) • EmersonElectric (EMR) • Dover (DOV) • IllinoisToolWorks (ITW) • W.W. Grainger (GWW) • Pentair (PNR) • RoperTechnologies (ROP) • StanleyBlack&Decker (SWK) • Cintas (CTAS) • GeneralDynamics (GD) • Caterpillar (CAT) • UnitedTechnologiesCorporation (UTX) 	13
	Moliya	<ul style="list-style-type: none"> • S&P Global Inc (formerly McGraw Hill Financial) (SPGI) • Aflac (AFL) • FranklinResources (BEN) • T.RowePrice (TROW) • CincinnatiFinancial (CINF) • ChubbLimited (CB) • People'sUnitedFinancial (PBCT) 	7
	Ko'chmas mulk	<ul style="list-style-type: none"> • Federal Realty Investment Trust (FRT) 	1
	Sog'liqni saqlash	<ul style="list-style-type: none"> • Becton, Dickinson and Company (BDX) • CardinalHealth (CAH) • Medtronic (MDT) • AbbVie (ABBV) • AbbottLaboratories (ABT) • Johnson&Johnson (JNJ) 	6
	Og'ir sanoat	<ul style="list-style-type: none"> • AirProducts (APD) • PPG (PPG) • Sherwin-Williams (SHW) • Ecolab (ECL) • Nucor (NUE) • Linde (LIN) 	6
	Texnologiyalar	<ul style="list-style-type: none"> • AutomaticDataProcessing (ADP) • AT&T (T) 	2
)	Kommunal xizmatlari	<ul style="list-style-type: none"> • ConsolidatedEdison (ED) 	1

Iste'molchilar bilan bog'liq bo'lgan birinchi va ikkinchi sohalar mos ravishda 8 ta va 11 ta kompaniyani qamrab oladi. Shuni ta'kidlash kerakki, Dividend Aristokratlarining orasida 7 ta moliya sohasiga tegishli kompaniya mavjudligini alohida ta'kidlashimiz lozim.

Garchi ushbu kompaniyalar aksiyalarining narxi oddiy kompaniyalarnikiga qaraganda yuqoribo'lsa-da, qaysi sohalarda dividendlar bo'yicha daromadlilik oshayotganligi va potensial investorlar uchun nisbatan kichik risk mavjudligi hisobiga ushbu kompaniyalarga investitsiya qilish foyda keltiradi, deb hisoblashimiz mumkin.

Agar kompaniyalar bitta sohaga tegishli bo'lsa, turli rivojlangan mamlakatlarda kompaniyalarning dividend to'lovlarini solishtirish osonroq bo'ladi. Quyidagi jadvalda AQShdan General Motors Company (GM), Yaponiyadan Toyota Motor Corporation (Toyota) va Germaniyadan Bayerische Motoren Werke AG (BMW) kompaniyalarida dividendlar to'lanishi tahlil qilamiz (4-jadval).

4-jadval

Rivojlangan davlatlardagi kompaniyalarda dividend to'lovlari tahlili [12]

№	Kompaniya nomi	2017			2018			2019		
		Yillik dividend	O'rtacha aksiya bahosi (\$)	Dividend bo'yi-cha daromadlilik	Yillik dividend	O'rtacha aksiya bahosi (\$)	Dividend bo'yi-cha daromadlilik	Yillik dividend	O'rtacha aksiya bahosi (\$)	Dividend bo'yi-cha daromadlilik
1.	GM-jami	1.52	37.6	4.04 %	1.52	37.8	4.02%	1.52	37.6	4.04%
	1-chorak	0.38			0.38			0.38		
	2-chorak	0.38			0.38			0.38		
	3-chorak	0.38			0.38			0.38		
	4-chorak	0.38			0.38			0.38		
2.	Toyota-jami	3.56	114.92	3.10 %	3.51	127.66	2.75%	3.56	128.52	2.77%
	1-yarim yillik	1.97			1.95			1.94		
	2-yarim yillik	1.59			1.56			1.62		
3.	BMW-jami	3.50	90.14	3.88 %	4.00	93.30	4.29%	3.50	69.80	5.01%

Yuqoridagi jadvalda avtomobil kompaniyalarining (GM, Toyota, BMW) so'nggi 3 yildagi dividend ko'rsatkichlari ko'rsatilgan. Ushbu kompaniyalar dividendlarni to'lash muddati bilan bir-biridan farq qiladi. General Motors kompaniyasi har chorakda dividendlar to'laydi, ammo Toyota va BMW kompaniyalari tegishli ravishda yarim yillik va yillik dividend to'lash davrlariga ega. Bundan tashqari, yillik dividendlar GMda eng kam 1,52AQSh dollarni tashkil etganligini ko'rish mumkin. Toyota va BMW kompaniyalarida esa 3 yil davomida dividend to'lovlari mos ravishda 3,51-3,56 AQSh dollari va 3,50-4,00 AQSh dollar oralig'iga amala oshirilgan. Shuningdek, Toyota kompaniyasining dividend bo'yicha daromadliliigi 2,75-3,10% oralig'ida o'zgargan, ammo GMda 4,02-4,04% va BMWda 3,85-5,01% ni tashkil etgan. Bu yerda Toyota kompaniyasi aksiyalari daromadliliigi yuqoriligi bilan ajralib turibdi, shunga qaramay potensial investorlar riskni ham inobatga olishlari lozim.

Xulosa va takliflar

Rivojlangan mamlakatlarda dividend siyosatining amaldagi holatini o'rganish va tahlil qilish orqali quyidagi xulosa va takliflarni keltirishimiz mumkin:

1. Avvalo, taqsimlanmagan foydani dividend va reinvestitsiyaga to'g'ri nisbatda taqsimlash lozim. Bunga oqilona dividend siyosati yuritish orqali erishish mumkin, bu esa, o'z navbatida, kompaniya faoliyatining ko'p tomonlama rivojlanishiga yordam beradi.

2. Foydani taqsimlashda minoritar aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish muhim ahamiyatga ega. Nazorat paketiga ega aksiyadorlar taqsimlanmagan foydani dividend olmasdan katta foyda keltiradigan investitsiya loyihalariga sarflashlari mumkin. Bunda minoritar aksiyadorlar noroziligi yuzaga kelishi va o'z aksiyalarini sotish orqali kiritgan investitsiyalarini qoplashlari mumkin. Ushbu holat esa boshqa kompaniyalar tomonidan ushbu aksiyalarni sotib olish orqali kompaniyaning qo'shib olinishiga olib kelishi mumkin.

3. Kompaniyaning taqsimlanmagan foydani to'liqligicha dividendga yo'naltirishi biznes faoliyatini kengaytirish uchun to'sqinlik qiladi. Shuning uchun kompaniya taqsimlanmagan foydaning ma'lum bir qismini muntazam dividendga yo'naltirishi aksiyadorlar ishonchini oshiradi, shuningdek, bozorda ushbu kompaniyaning aksiyalari narxining oshishiga ham olib keladi.

4. Agentlik nizolarining oldini olish maqsadida ishlab chiqilgan korporativ boshqaruv kodeksining mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatidagi o'rni va ahamiyatini oshirish zarur. Bunda aksiyadorlik jamiyatlaridagi xususiy sektor ulushi yuqori bo'lishi lozim. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida salohiyatli moliyaviy menejerlar ishtirokini oshirish talab etiladi. Ushbu e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar korporativ boshqaruv kodeksining aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatidagi haqiqiy ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

5. Rivojlangan mamlakatlardan hisoblangan AQSh tajribasi asosida shuni ta'kidlash lozimki, bizning fond bozorimizda ham aksiyadorlik jamiyatlarining bozor kapitalizatsiyasi, aksiyalar narxi, dividendlar bo'yicha daromadlilik, dividend to'lovlari muntazamligi kabi jihatlariga ko'ra reyting tuzilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu orqali ushbu reytingdagi kompaniyalar potensial investorlarning ishonchini va investitsiya jalb qilish imkoniyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shavkat Mirziyoyev. "Yagona yo'limiz – tadbirkorlar sonini ko'paytirish, odamlarni ishbilarmon qilish" nomli ma'ruzasi. 8.01.2020;

2. <https://stat.uz/uz/press-sluzhba/novosti-uzbekistana/8228-shavkat-mirziyoyev-yagona-yo-limiz-tadbirkorlar-sonini-ko-paytirish-odamlarni-ishbilarmon-qilish>

3. Eugene F.Brigham and Joel F.Houston. Fundamentals of Financial Management. Eleventh Edition, Thomson South-Western, the USA, 2007, 685p.

4. J.Atanassov, A.Mandell. Corporate governance and dividend policy: evidence of tunneling from master limited partnerships. // Journal of Corporate Finance. Article. 53 (2018) 106-132.

5. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S092911991730679X>

6. K.Garrett. Dividend Theory. Article. 2019. <https://www.accaglobal.com/hk/en/student/exam-support-resources/fundamentals-exams-study-resources/f9/technical-articles/dividend-theory.html>
7. M.Harake. Dividend policy and corporate investment under information shocks. // Journal of International Financial Markets, Institutions and Money. Article. February 21, 2020.
8. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1042443120300688>
9. Ciaran Driver, Anna Grosman, Pasquale Scaramozzino. Dividend policy and investor pressure. // Economic modelling. Article. November 16, 2019. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0264999318309623>
10. N.Sherqo'ziyeva. Dividend siyosati yo'nalishlari va uning aksiyadorlik jamiyatlari rivojlanishidagi roli. // Moliya. № 4, 2019. – B. 18-27.
11. <https://www.businessmanagementideas.com/financial-management/dividends/dividend-policy-in-practice-with-calculations/4086-Biznes-yuritish-bo'yicha-xalqaro-veb-sayt;>
12. <http://siblisresearch.com/data/global-dividend-yields/>-Xalqaro moliyaviy ma'lumotlar bazasi;
13. <https://moneyinvestexpert.com/dividend-aristocrats/dividend-aristocrats-2020> - Yuqori foyda keltiruvchi investitsiya loyihalari bilan bog'liq ma'lumotlarni e'lon qiluvchi xalqaro veb-sayt;
14. <https://moneyinvestexpert.com/dividend-aristocrats/dividend-aristocrats-2020> - Yuqori foyda keltiruvchi investitsiya loyihalari bilan bog'liq ma'lumotlarni e'lon qiluvchi xalqaro veb-sayt;
15. <https://www.nasdaq.com/market-activity/stocks/tm/dividend-history> - Xalqaro moliyaviy ma'lumotlar provayderi veb-sayti; <https://www.macrotrends.net/stocks/charts/TM/toyota/stock-price-history> - Uzoq muddatli investitsiyalar uchun mo'ljallangan tadqiqotlar platformasining rasmiy veb-sayti; <https://markets.businessinsider.com/stocks/bmw/dividends> - AQShning moliyaviy va biznes yangiliklari veb-sayti; <https://www.marketbeat.com/stocks/NYSE/GM/dividend/>- Fond bozori yangiliklari va tadqiqotlarini yetkazib beruvchi veb sayt.